



ANALYSIS OF LAXATIVES PERMITTED FOR USE IN MEDICAL PRACTICE IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Ganiyev A.K.

Professor of the Tashkent Pharmaceutical Institute

g.abdumumin@pharmi.uz

Nabikhanova R.

Graduate student of Tashkent Pharmaceutical Institute

rohatoyfarm.1999@gmail.com

Abdullaeva X.K.

Associate Professor of the Tashkent Pharmaceutical Institute

khafiza.abdullayeva56@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14136476>

ARTICLE INFO

Received: 06th November 2024

Accepted: 12th November 2024

Online: 13th November 2024

KEYWORDS

Drugs, medicinal plant, range, laxatives, dosage forms, dosage, drug production, content analysis.

ABSTRACT

As of September 2024, the number of drugs approved for use in medical practice in the Republic of Uzbekistan is 9703. Of these, 2966 are produced by domestic manufacturers, 1459 - by the CIS countries, 5178 - by foreign countries. And laxatives make up only 66 of the range of drugs (0.68% of the total number of drugs), of which 42 (about 64%) are produced by local manufacturers, 8 - by the CIS countries and 16 - by foreign countries. The article presents the results of the content analysis of the international names of laxatives, dosage forms, dosages, manufacturers and methods of dispensing of drugs.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TIBBIYOT AMALIYOTDA FOYDALANISH UCHUN RUXSAT BERILGAN SURGI DORI VOSITALARNING TAHLILI

Ganiyev A.K.

Toshkent farmatsevtika instituti professori

g.abdumumin@pharmi.uz

Nabixonova R.

Toshkent farmatsevtika instituti magistranti rohatoyfarm.1999@gmail.com

Abdullaeva X.K.

Toshkent farmatsevtika instituti dotsenti

xafiza.abdullayeva56@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14136476>

ARTICLE INFO

Received: 06th November 2024

Accepted: 12th November 2024

Online: 13th November 2024

KEYWORDS

Dori vositalari, dorivor o'simlik, assortiment, surgi dorilar, dori shakllari, dozalash, dori ishlab chiqarish, kontent tahlil.

ABSTRACT

O'zbekiston Respublikasida tibbiyot amaliyotida qo'llash uchun ruxsat etilgan dori vositalarining soni, 2024-yil sentabr holatiga ko'ra, 9703 tani tashkil etadi. Shulardan 2966 tasi mahalliy ishlab chiqaruvchilar, 1459 tasi MDH davlatlari va 5178 tasi xorijiy davlatlari hissasiga to'g'ri keladi. Surgi vositalari esa dorilar assortimentining atigi 66 tasini (dorilar umumiy



sonining 0,68%) tashkil etib, shulardan 42 tasi (64% atrofida) mahalliy ishlab chiqaruvchilar, 8 tasi MDH davlatlari va 16 tasi xorijiy davlatlari hissasiga to'g'ri keladi. Ushbu maqolada surgı vositalarining xalqaro nomlari, dori shakllari, dozalari, ishlab chiqaruvchilari va dori vositalarini tarqatish shartlari bo'yicha kontent tahlil natijalari keltirilgan.

KIRISH. Aholini sifatli, samarali va xavfsiz farmasevtika mahsulotlari bilan ta'minlash xar bir davlatning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Farmasevtika tarmog'iga ilg'or ilmiy-texnika yutuqlari va innovasiyalarni joriy etish orqali tarmoqda ishlab chiqarish hajmini 3 barobarga oshirish, ichki bozorni ta'minlash darajasini natural hajmda 80 foizga yetkazish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 yanvardagi "2022 — 2026 yillarda respublikaning farmasevtika tarmog'ini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PF-55-son Farmoni qabul qilindi [1]. Farmonda Sog'liqni saqlash vazirligi, Investisiyalar va tashqi savdo vazirligi, Moliya vazirligi hamda Farmasevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi tomonidan ishlab chiqilgan, mahalliy farmasevtika mahsulotlari ishlab chiqarishni jadal rivojlantirishga ko'maklashishga qaratilgan qator chora-tadbirlar belgilab berilgan. Mahalliy farmasevtika mahsulotlari ishlab chiqarishni jadal rivojlantirishda dorivor o'simliklar muhim o'rin tutadi. Dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, ularning plantasiyalarini tashkil etish, qayta ishlash orqali qo'shimcha qiymat zanjirini yaratish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 apreldagi "Yovvoyi holda o'suvchi dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4670-son qarori qabul qilingan [2]. Qarorda dorivor o'simliklarni yetishtirish, saqlash, birlamchi yoki chuqur qayta ishlash bo'yicha klasterlarini tashkil etish, shuningdek, hududlarni dorivor o'simliklar yetishtirishga ixtisoslashtirish ko'zda tutilgan. Jumladan, Ingichka bargli sano (Iskandariya sanosi - Senna alexandrina Mill.) o'simligini mexanik tarkibi yengil tuproqlar, tipik bo'z tuproqlar hamda tekislik yer maydonlariga mos, qurg'oqchilikka chidamli (kserofit) o'simlik sifatida Buxoro viloyatining Qorako'l, G'ijduvon, Shofirkon tumanlarida, Toshkent viloyatining Quyichirchiq, Piskent, O'rtachirchiq tumanlarida yetishtirish ko'zda tutilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Jamiyatning urbanizatsiyalashuvi ko'plab afzalliklar bilan bir qatorda noto'g'ri ovqatlanish, stress va harakatsiz turmush tarzi bilan bog'liq ovqat hazm qilish tizimi kasalliklarini ham keltirib chiqarmoqda. Natijada, bemorlar tomonidan ichak harakatining buzilishi va ich qotishi kabi shikoyatlar bilan gastroenterologlar yoki dorixonada farmatsevtiklariga murojaatlar soni muntazam ravishda ortib bormoqda.

Oshqozon-ichak yo'llari kasalliklari ichida yo'g'on ichakning motor-evakuatsiya funksiyasining turli xil buzilishlari juda ko'p kuzatiladi. Qabziyat muammosi barcha yoshdagi bemorlarda uchrashi mumkin. Bunday buzilishning sabablari nafaqat oshqozon-ichak yo'llari kasalliklari natijasida, balki noto'g'ri ovqatlanish, ba'zi dori-darmonlarni noto'g'ri qo'llash va stressli vaziyatlar natijasida ham kelib chiqishi mumkin. Uzoq muddatli ich qotishi jiddiy



oqibatlariga olib kelishi mumkin, shuning uchun ichak faoliyatida muammolar yuzaga kelganda, surgi dorilarini qabul qilish maqsadga muvofiqdir [3].

O'simliklar tarkibidagi tabiiy nisbatda mavjud bo'lgan biologik faol moddalar uzoq vaqt davomida qo'llanilganda, patentlangan dori vositalarining alohida tarkibiy qismlariga qaraganda, ko'proq fiziologik ta'sir ko'rsatishi mumkin. Surgi ta'sirli dorivor o'simliklarga quyidagilar kiradi: - sano barglari, tog'jumrut mevalari, dengiz karami, qizilmiya ildizi va ildizpoyalari, arpabodiyon mevalari, aloe barglari, shaftolibargli taron o'ti va b. Qabziyat tufayli kelib chiqadigan qorin dam bo'lishida yel haydovchi o'simliklardan foydalaniladi. Bular qatoriga moychechak gullari, arpabodiyon mevalari va zira mevalari kiradi [4].

NATIJALAR. 09.09.2024 yil holatiga ko'ra, Dori vositalari va tibbiyot buyumlari davlat reestrda keltirilgan ma'lumotlarga asosan, O'zbekiston Respublikasi tibbiyot amaliyotida qo'llash uchun ruxsat etilgan surgi dori vositalari kontent tahlili o'tkazildi [5]. Mahalliy ishlab chiqaruvchilarning dori vositalari reestriga 2966 nomdagi dori vositalari kiritilgan bo'lib, ulardan 42 tasi (1,42%) surgi dorilardir. Xalqaro nomlanishiga ko'ra, bu surgi dorilar 11 nomda ifodalanadi, ularda quyidagi dori shakllari mavjud: tabletkalar - 15; qiyomlar - 7; o'simlik moylari - 6; og'iz orqali yuborish uchun tomchilar va rektal shamchalar - har biri 4 tadan; huqna uchun kukunlar va eritmalar - har biri 2 tadan, shuningdek dorivor o'simlik hom ashyosi va og'iz orqali yuboriladigan eritmalar - har biri 1 nomdan. Ushbu dori vositalari 24 ta korxona tomonidan ishlab chiqariladi, ulardan faqat 1 tasi 4 ta nomdagi; 5 ta kompaniya - har biri 3 tadan; yana 5 ta kompaniya - har biri 2 ta va qolgan 13 ta kompaniya - faqat 1 ta nomdagi surgi dorilarni ishlab chiqaradi. Ushbu dorilarni bemorlarga berish shartlari: retseptsiz - 33 va qolgan 9 - retsept bo'yicha (Jadval 1).

No	Xalqaro nomlanishi	Savdo nomi	Dori shakli	Ishlab chiqaruvchi korxona	Berilishi
1.	Bisacodyl	Bisakodil SD	Shamcha	Sharq Darmon, MChJ	Retseptsiz
2.	Calcium sennosides A&B	Senadexinum SD Senamaks	Tabletka	Sharq Darmon, MChJ Herbal Pharma, MChJ	Retseptsiz
3.	Comb.drug (Sodium phosphate/biphosphate)	Klining Enema plyus	Huqna eritmalar i	Medical Max Pharm, MChJ Golden Medikal Farm, ЧП	Retsept bo'yicha
4.	Folium Sennae	Sano barglari	Dor.o'sim.	Zamona Rano, MChJ	Retseptsiz
5.	Glycerol	MR Glitserin Glycerinum	Shamcha	MerryMed Farm, MChJ; Dentafill Plyus, MChJ; Radiks, MChJ	Retseptsiz
6.	Lactulose	Defilak Dyufalamer Dyufelur-NF	Qiyom	Dentafill Plyus, MChJ; MerryMed Farm, MChJ; Novo Farm Komplekt,	Retsept bo'yicha



		Laktuloza		QK MChJ; Radiks, MChJ	
		Difullak-PCM		Pharmacom Medicine, MChJ; Ziy Nur Farm, HK; Jurabek Laboratories, QK MChJ	Retsepts iz
		Duphalactulosa			
		Laktaks			
7.	Magnesium sulfate	Magnesii sulfas	Kukun	Osiyo Farm, MChJ	Retsepts iz
8.	Ricini oleum	Oleum Ricini	O'simlik moyi	Ziy Nur Farm, HK; Lafz, MChJ; Ko'hna Beshrabot, HK; Remedy QK MChJ; Radiks, MChJ; Tandem Pharm, MChJ	Retsepts iz
9.	Sennoside A+B	Senadexinum	Tabletka N10 (1x10), N20 (2x10), N30 (3x10), N60 (6x10), N100 (10x10)	Herbal Pharma, MChJ	Retsepts iz
		Senadexinum-SAMO		Novo Farm Komplekt, MChJ	
		Senadexinum ZPh		Samo, MChJ	
		Senadexinum		Jayxun Invest, MChJ; Remedy, CII MChJ; Navbahor Sanoat, MChJ; Dentafill Plyus, MChJ; Zunnur Service Pharm, MChJ; Lafz, MChJ; Ziy Nur Farm, ЧП; Radiks, MChJ	
		Sena-mig		Sharq Darmon, MChJ	
10.	Sodium picosulfate	Medlaks pikosulfat	Ichish uchun tomchilar 0,75% 10	Mediofarm, MChJ	Retsepts iz
		Pikalaksmer		Merrymed Farm, MChJ	
		Slabotaks		Jurabek Laboratories, QK MChJ; Lekinterkaps, MChJ	Retsept bo'yicha
		Likoslab-LIK			
11.	Sulfur depuratum*	Sulfur tersus	Kukun 0,3	Osiyo Farm, MChJ	Retsepts iz

Jadval 1

Mahalliy ishlab chiqaruvchilarning surgu dorilari

MDH mamlakatlari tomonidan ishlab chiqarilgan O'zbekiston Respublikasining tibbiyot amaliyotida foydalanishga ruxsat berilgan dori vositalari 1559 nomdagi dori vositalarini tashkil etadi, shundan atigi 8 tasi (0,51%) surgu dorilar sifatida ro'yxatga olingan. Xalqaro nomga ko'ra, bu dorilar Bisakodil va natriy pikosulfat - har biri 3 nomda, Glitserin va Laktitol -



har biri 1 nomda. Ushbu dorilarning ishlab chiqarilish shakllari: rektal shamchalar - 3; og'iz orqali yuborish - 2; tabletkalar - 2 va og'iz orqali yuborish uchun eritma tayyorlash uchun kukun - 1 nomda. Ushbu dori vositalarini ishlab chiqaruvchi mamlakatlar Rossiya - 4; Ukraina - 3 va Belarus - 1 dori. Dori vositalarini berish shartlari: retseptsiz - 6 va 2 ta dori retsepti bilan (Jadval 2).

Jadval 2

MDH mamlakatlari tomonidan ishlab chiqarilgan surgı dori vositalari

No	Xalqaro nomlanishi	Savdo nomi	Dori shakli	Ishlab chiqaruvchi korxona	Berilishi
1.	Bisacodyl	Bisakodil	Shamchal ar	Ukraina, Monfarm, PJSC	Retsepts iz
		Bisakodil-Nijfarm		Rossiya, Nijfarm	Retsept bo'yicha
		Bisakodil	Tabletka	Belarusiya, Borisov tpz, OAJ	
2.	Laktitol	Exportal	Kukun	Rossiya, Valenta Pharm, OAJ	Retsepts iz
3.	Sodium picosulfate	Pikodinar	Tomchi	Rossiya, Grotex, MChJ	Retsepts iz
		Pikolaks		Ukraina, Farmak, OAJ	
		Picolax	Tabletka		
4.	Glycerol	Glitselaks	Shamchal ar	Rossiya, Moskva farmz OAJ	Retsepts iz

Xorijiy ishlab chiqaruvchilarning dori-darmonlari 5178 nomdan iborat bo'lib, ulardan 16 tasi (0,31%) surgı dorilardir. 6 ta dori vositasining xalqaro nomlari Comb.drug (tuzlar) bilan ifodalanadi; Laktuloza -5 va qolganlari - har birida 1 nom (Comb.drug (O'simlik ekstraktlari); Glitserin; Ispaghula qobig'i; Rhei radix pulveratum va Natriy picosulfat). Ushbu dorilarning dozlash shakllari: rektal yuborish uchun eritma - 4; qiyomlar - 4; og'iz orqali yuboriladigan eritma tayyorlash uchun granulalar - 3; og'iz orqali yuboriladigan eritma tayyorlash uchun kukun - 2; orqali yuboriladigan eritmaslar - 2 va tabletkalar - 1 nomda. Ishlab chiqaruvchi mamlakatlar Hindiston - 7 ta dori, Italiya, Niderlandiya va Pokiston - har biri 2 tadan, Bangladesh, Polsha va Portugaliya - har biri 1 tadan dori. Faqat 1 ta ishlab chiqaruvchi 2 turdagi surgı dorilarni yetkazib beradi (Abbott Laboratories GmbH, Shveytsariya, Abbott Biologicals B.V. tomonidan ishlab chiqarilgan), qolgan 14 ta ishlab chiqaruvchi esa har biri 1 tadan dori vositasini yetkazib beradi. Xorijiy ishlab chiqaruvchilardan ushbu dori vositalarini berish shartlari: retseptsiz - 9 va shifokor retsepti bilan 7 ta dori vositasi (Jadval 3).

XULOSA

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasida qo'llash uchun ruxsat etilgan surgı dorilar assortimenti tahlili shuni ko'rsatdiki, MDH davlatlari va xorijiy ishlab chiqaruvchilar tomonidan yetkazib beriladigan dori vositalarining asosiy qismi ham mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqariladi. Ispaghula Husk, Radirex® (Rhei radix pulveratum) va boshqalar kabi dorivor o'simlik materiallaridan ekstraktlar (Bon-Apeta®



(Bon-Apeta)) yoki mono va kombinatsiyalangan preparatlar bundan mustasno. Shu bois, yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va farmatsevtika fanining yutuqlaridan foydalangan holda mahalliy o'simlik materiallari asosida o'simlikdan olinadigan surgi dori vositalari turlarini ko'paytirishga e'tibor qaratish lozim.

Jadval 3

Xorijiy ishlab chiqaruvchilarning surgi dori vositalari

№	Xalqaro nomlanishi	Savdo nomi	Dori shakli	Ishlab chiqaruvchi korxona	Berilishi
1.	Comb.drug (Disodium hydrogen phosphate dodecahydrate, Sodium dihydrogen phosphate dihydrate)	Faro-Laks	Granula	Hindiston, Faromed Lifesciences LLP.	Retseptsi z
2.		Friflo Klizma	Rektal eritma	Hindiston, Kusum Healthcare Pvt. Ltd	
3.		Kleen Enem		Pokiston, Nabiqasim Industries (Pvt) Ltd	Retsept bilan
4.		Yuni Enema		HindistonUnicare (India) Ltd	
5.		Peglek	Kukun	HindistonTil Healthcare Pvt. Ltd	Retseptsi z
6.		Movlon	Kukun	Pokiston, Genix Pharma (Pvt.) Ltd	
7.	Comb.drug (Plant extracts)*	Bon-Apeta	Qiyom	Hindiston, Harasha Pharma Pvt. Ltd	
8.	Glycerol	Glitserol Sella	Rektal eritma	Italiya, Laboratorio Chimico Farmaceutico A. Sella s.r.l.	
9.	Ispaghula Husk	Ispaxask apelsinovi y	Granula	Hindiston, Rusan Pharma Ltd	Retsept bilan
10.	Lactitol Monohydrate	Eva kyu	Qiyom	Hindiston, Medley Pharmaceuticals Limited	
11.	Lactulose	Dyufalak Mama & Baby	Ichish uchun eritma	Ninerland, Abbott Laboratories GmbH,	
12.	Lactulose	Dyufalak	Qiyom	Ninerland, Abbott Laboratories GmbH,	
13.	Lactulose	Peristalid		Portugaliya, GM Pharmaceutical, OOO	
14.	Lactulose	Tulac	Ichishga eritma	Bangladesh, Biota Wellness L.L.C-FZ	
15.	Rhei radix pulveratum	Radireks	Tabletka	Polsha, Wroclaw Herb Factory "Herbapol" S.A.	
16.	Sodium picosulfate	Guttalax	Ichishga tomchi	Italiya, Sanofi rossiya, AO,	Retseptsi z



References:

1. <https://lex.uz/docs/-5834287> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.01.2022 yildagi "2022 — 2026 yillarda respublikaning farmasevtika tarmog'ini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PF-55-son Farmoni.
2. <https://lex.uz/docs/-4785256> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.04.2020 yildagi "Yovvoyi holda o'suvchi dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4670-son qarori.
3. Фармацевтический энциклопедический словарь/ Ю.А. Куликов, А.И. Сливкин, Т.Г. Афанасьева /Под ред. Г.Л. Вышковского, Ю.А. Куликова. - М., ВЕДАНТА, 2015.
4. Лекарственный Вестник № 2 (66). 2017. Том 11 28 Современные Подходы К Фармакотерапии Запоров А. В. Тумаренко, В. В. Скворцов.
5. <https://uzpharm-control.uz/pages/state-register-of-medicines-and-medical-products> O'zbekiston Respublikasi Dori vositalari va tibbiyot buyumlari davlat reestri.